



<https://doi.org/10.70728/a.series.ijt.v08.i04.086>

UDK 908

<https://orcid.org/0009-0000-3669-1489>

MIRZO ULUG‘BEKNING ILMIY MEROSI VA SIYMOSI

Rasulov G‘ayrat Pardayevich

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi

“Islom tarixi va manbashunosligi IRCICA” kafedrasi mudiri, PhD

gayratrasulov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada nafaqat Sharq, balki G‘arb dunyosining mashhur olimlaridan biri Mirzo Ulug‘bek ilmiy-ma‘rifiy merosini mamlakatimiz va xalqaro miqyosda yanada chuqur o‘rganishga qaratilgan harakatlar, buning qonuniy asoslari keltirildi. G‘iyosiddin Koshiyning otasiga yo‘llagan maktubida aks etgan Mirzo Ulug‘bek siymosi, shaxs sifatida o‘ziga xos jihatlari yoritildi. Yakunida allomalar hayoti bilan tanishish, hayotga tadbiq etish zaruriyati, ularni yosh avlodning qahramoni sifatida shakllantirish tarbiyadagi asosiy maqsadlarimizdan biri ekani izohlandi.

Kalit so‘zlar: Samarqand, ilmiy-ma‘rifiy meros, Ulug‘bek maktabi, G‘iyosiddin Koshiy, ma‘naviy salohiyat, tarbiya.

Аннотация. В данной статье рассмотрены усилия, направленные на глубокое изучение научно-просветительского наследия Мирзо Улугбека — выдающегося ученого не только Востока, но и всего мира, а также его правовые основания как на уровне нашей страны, так и в международном масштабе. Также раскрыта образ Мирзо Улугбека из письма Гиясуддина Каши, адресованному его отцу, раскрыты уникальные аспекты его личности. В заключении подчеркивается важность знакомства с жизнью великих ученых, применения их опыта в реальной жизни, а также формирования их образа как героев для молодого поколения, что является одной из важных целей воспитания.

Ключевые слова: Самарканд, научно-просветительское наследие, школа Улугбека, Гиясуддин Каши, духовный потенциал, воспитание.

Annotation. This article explores efforts to deeply study the scientific and educational legacy of Mirzo Ulugbek — a renowned scholar not only of the East but also of the world — and the legal framework for these efforts both nationally and internationally. It also illuminates the image of Mirzo Ulugbek as depicted in a letter from Giasuddin Kashi to his father, revealing unique facets of his character. The article concludes by emphasizing the importance of studying the lives of great scholars, applying their knowledge to daily life, and shaping their image as heroes for the younger generation, which is one of the key goals of education.

Keywords: Samarkand, scientific and educational heritage, Ulugbek school, Giyasuddin Kashi, spiritual potential, education.

KIRISH. Bugungi axborotlar asrida islom olami o‘z ta’lim tizimini rivojlantirmay turib, taraqqiyotga erisha olmaydi. Darhaqiqat, hozirda eng rivojlangan mamlakatlarning ilmfan sohasidagi yutuqlarida o‘z davrida katta nufuzga ega yirik markazlar – Damashq, Qohira, Kufa, Basra, Makka, Madina, Bag‘dod, Samarqand, Buxoro va boshqa islom olamidagi ilmdargohlarida yetishib chiqqan mutafakkir allomalarning hissasi borligiga aminmiz. Mustaqillik yillaridan Mirzo Ulug‘bekning hayoti va faoliyatini har tomonlama o‘rganish va ommalashtirish maqsadida ko‘plab tadqiqotlar, mahalliy va xalqaro miqyosda ilmiy-amaliy anjumanlar muntazam o‘tkazib kelinmoqda. Uning davrida bunyod etilgan me’moriy obidalarni asrab-avaylashga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Jumladan, BMTning Ta’lim, fan va madaniyat sohasidagi tashkiloti (YUNESKO) Bosh konferensiyasining 27-sessiyasi qaroriga ko‘ra Mirzo Ulug‘bek yubileyi jahon qadriyatlari ro‘yxatiga — 1994-yilda dunyo miqyosida nishonlanadigan bayramlar qatoriga kiritilganini inobatga olib, 1994-yilning 19-martida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. Karimov “1994-yilni Mirzo Ulug‘bek yili deb e’lon etish to‘g‘risida”gi PF-796-sonli Farmonni imzoladi [6]. Ushbu amaliy ishlarning davomi o‘laroq joriy yilning 12-sentabrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev “Buyuk qomusiy olim va mashhur davlat arbobi Mirzo Ulug‘bek tavalludining 630 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida” PQ-323-sonli Qarorini imzoladi [7]. Mazkur hujjat buyuk ajdodimiz asarlarining milliy va umuminsoniy mazmun-mohiyatini, ularning yosh avlod intellektual va ma’naviy salohiyatini oshirish va shu asosda Yangi O‘zbekistonning munosib bunyodkorlari etib tarbiyalash borasidagi beqiyos o‘rni va ahamiyatini inobatga olib hamda Mirzo Ulug‘bek ilmiy-ma’rifiy merosini mamlakatimiz va xalqaro miqyosda yanada chuqur o‘rganish va targ‘ib etishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Dunyo astronomiya fani taraqqiyotida o‘rta asr Sharq astronomiyasi, jumladan, Markaziy Osiyo olimlarining faoliyati alohida o‘rin tutadi. Bu davrda, ayniqsa, Quyosh, Oy va sayyoralarning harakat nazariyasi, amaliy astronomiyaning vaqt va joyning geografik koordinatalarini aniqlashga doir masalalari bo‘yicha O‘rta Osiyo, xususan, o‘zbek allomalari juda boy meros qoldirdilar. Ular ichida Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Nasr al-Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Nasiruddin at-Tusi, Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Mirzo Ulug‘bek kabi mashhur siymolar o‘z ijodlari, ilmiy meroslari bilan Markaziy Osiyo xalqlarininggina emas, balki dunyo xalqlarining boyligiga aylanib, bugun jahonning barcha ellari orasida hurmat bilan tilga olinadilar.

Dastlab xalifa Ma’mun zamonasida (IX asr) ishga tushirilgan va Al-Xorazmiy ishlagan Bag‘dod rasadxonasi, so‘ngra Umar Xayyomning Isfahondagi, Nasiruddin at-Tusiyning Marog‘adagi va Abu Mahmud Hamid al-Xo‘jandiyning rasadxonalari va, nihoyat, bular ichida kattaligi, bosh astronomik asbobining aniqlik darajasi yuzasidan hammasidan ustun turadigan Ulug‘bek rasadxonasi va uning maktabining ilmiy merosi o‘rta asrlarda astronomiyaning fan sifatida shakllanishida muhim bir bosqichni boshlaganligini dunyo olimlari tan oladilar.

Salkam yetti asr davom etgan Sharq astronomiyasining jo‘shqin faoliyati Ulug‘bek va uning akademiyasining boy ilmiy merosi bilan yakunlandi. Ulug‘bek astronomiya maktabi vakillarining tadqiqotlari natijasi bo‘lgan buyuk meros — “Ziji jadidi Ko‘ragoniy”dan keyingi yuz yillar mobaynida faqat Sharq emas, balki G‘arb mamlakatlari ko‘pgina yirik rasadxonalarining olimlari dasturul-amal sifatida keng foydalandilar [4].

Mirzo Ulug‘bekning siymosi va ilmiy merosi haqida bir qator zamondosh olimlarning asarlarida ma‘lumot keltirilgan. O‘sha davr buyuk allomalaridan biri Jamshid ibn Mahmud G‘iyosiddin al-Koshiy XIV-XV asrning riyoziyot va falakiyot ilmining buyuk allomasi, Samarqandda Ulug‘bek maktabining yetakchi olimlaridan edi. U yoshlik yillarini Koshonda o‘tkazib, riyoziyot va falakiyot ilmi bilan shug‘ullangan, qadimgi grek va eron olimlarning asarlarini tarjima qilib, ularga sharhlar yozgan. Mirzo Ulug‘bek Qozizoda Rumiyning maslahati bilan 1416-yili al-Koshiyni Samarqandga taklif etgan va u umrining oxirigacha shu yerda yashagan. XIV-XV asrlar riyoziyot va falakiyot ilmining buyuk allomalaridan biri sifatida ajoyib qomus – “Miftoh al-hisob” (“Hisob kaliti”) asari bilan Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida mashhur edi [4;1]. G‘iyosiddin Koshiyning 1420-1421-yillar atrofida Zulqa‘da oyining yettinchi kuni Samarqanddan Koshonga, otasiga yo‘llagan maktubi Ulug‘bek, Qozizoda Rumi, G‘iyosuddin Koshiyning o‘zi va Samarqand maktabining boshqa olimlarining ilmiy faoliyatlariga oid qiziqarli ma‘lumotlar hamda rasadxona qurilishiga doir lavhalar mufassalligi bilan diqqatga sazovordir.

G‘iyosuddin xatida Samarqand Markaziy Osiyoning madaniy markazi sifatida Koshondan afzalligini, Ulug‘bekni esa ko‘zga ko‘ringan davlat arbobi va hukmdorgina emas, balki yirik olim ekanini tasvirlab o‘tadi. Muallifning Ulug‘bek haqida keltirgan ushbu dalillari boshqa tarixiy manbalarda uchraydigan Ulug‘bek haqidagi ma‘lumotlarni, ayniqsa, uning alloma ekanligini anchagina isbotlaydi.

G‘iyosuddin maktubi avvalida Alloh taolaga hamd-sanolar bilan boshlar ekan, orada Ulug‘bek Mirzoga nisbatan “islom podshosi” nomini qo‘llaydi. Fiqla davomida Ulug‘bekning Qur‘oni karimning aksariyat qismini, tafsirlarini va mufasssirlarning har bir oyat haqidagi so‘zlarini yoddan bilishini, shuningdek aytgan gapidan so‘ng isbot o‘laroq munosib oyat va muvofiq iboralarni keltirgani haqida ma‘lumotlar beradi. Keyingi o‘rinlarni Ulug‘bekning arab tili xossatan, nahv va sarf ilmlarini puxta egallagani, arab tili husnixati g‘oyat chiroyli bo‘lgani aytib o‘tgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Samarqandda 1420-yilda qurilgan madrasa ilm-fanning nufuzli markazi bo‘lib, unda Ulug‘bekning o‘zi ma‘ruzalar o‘qigan. Maktub yozilgan paytida Ulug‘bek 26–27 yoshlarda bo‘lgan va o‘ta izchillik bilan falakiyot va riyoziyot fanlari bilan shug‘ullangan. Koshiy o‘z maktubida Ulug‘bekni falakiyot sohasidagi favqulodda qobiliyatini qayd etib, uning “Nasiriddinning xotiranomalari” (“Tazkira”) sidan va “Shoh tuhfası” (“Tuhfa”) dan o‘qigan ajoyib ma‘ruzalarini eslatib o‘tadi. G‘iyosuddin Ulug‘bekning beqiyos xotirasi haqida yozarkan, u oftobning uzunligini darajalari va daqiqalarigacha bo‘lgan aniqlikda yoddan hisoblay olishini ta‘kidlab o‘tadi. U Ulug‘bekning madrasalarda va saroyda o‘tkaziladigan katta ilmiy kengashlardagi bahslarda faol ishtirok etishini va shu munosabat bilan Ulug‘bekning ustozı Qozizoda Rumiyning ismini ham tilga oladi va uni eng ma‘rifatli olim deb ajratib ko‘rsatadi. [3;190-191]

G‘iyosuddin Koshiy maktubida Mirzo Ulug‘bekning huquqshunoslik, mantiq ilmi, adabiyot, riyoziyot va falakiyotdagi ajoyib bilimlarini ta’kidlagan, bu haqda shu vaqtgacha faqatgina taxminlar qilingan, xolos. Maktubda Ulug‘bek qurdirgan madrasa va saroy, ular bilan bog‘liq ko‘plab voqealarni eslab o‘tadi. Ayniqsa, u yerda olib borilgan ilmiy muammolarga oid baxs-munozaralarni mavzulari, Ulug‘bek va o‘zining bergan yechimlarini sanab o‘tadi. Maktubni Ulug‘bek rasadxonasida qo‘llanilgan asbob-uskunalar to‘g‘risiagi ma’lumotlatga boy manba deyish ham mumkin. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, Alouddin al-Buxori 1447-yili Abu Xanifa an-Nu‘mon ibn Sobit ibn Zutaning (767-yild vafot etgan) asariga yozilgan “Sharh ala-l-fiqh al-akbar” (“Buyuk fiqh”ga sharh) ini Ulug‘bekka bag‘ishlangani bejiz emas. Maktubdan yana shu narsa ma’lum bo‘ladiki, Abu Rayhon Beruniyning “Qonuni Mas’udiy Ulug‘bek va uning atrofidagi hamkorlari — Qozizoda Rumiy, G‘iyosuddin Koshiyning o‘zi va boshqalar uchun doim kerak bo‘ladigan kitob hisoblangan. Mazkur ma’lumotlar Samarqand maktabining buyuk olim Abu Rayhon Beruniy ilmiy merosi bilan bog‘liqligidan guvohlik beradi.

Maktubda shuningdek rasadxona devoriga o‘rnatilgan quyosh soati haqida ma’lumot keltirilib o‘tilgan. Vaholanki, Mirzo Ulug‘bek asarlarida bunday soat mavjudligi haqida bevosita ta’kid uchramaydi. Demak, G‘iyosuddinning bu ma’lumotlari Qori Niyoziyning Ulug‘bekka bag‘ishlangan “Ulug‘bekning astronomik maktabi” asaridagi shunday soat bo‘lganligi haqida taxminini tasdiqlaydi.

Ushbu keltirilgan ma’lumotlar maktubning Tehronda Sipohsolor masjidining kutubxonasida saqlanayotgan to‘plam jildining bir qismidan olingan. Maktubning forsha matni eron olimi M.Tabotaboiy (Eron, 1940) turk olimi Oydin Sayiliy tomonidan ingliz va turk (Anqara, 1960) amerikalik olim E. Kennedi tomonidan ingliz (Rim, 1960), arab olim Ahmad Sa‘id Damardosh tomonidan arab (Misr, 1963), tojik olimlari G‘. Sobirov va N. Boboyev rus (Dushanbe, 1973), shuningdek, Toshkentda rus (1979) va o‘zbek (1996) tillariga tarjima qilinib, nashr etilgan.[7]

Koshiyning keltirib o‘tgan Hirot, ayniqsa, Samarqanddagi ilmiy tadqiqotlari, uning matematika va astronomiya sohasida erishgan yutuqlari Temuriylar davrida Xuroson va Movarounnahrda madaniy rivojlanish va turli yurtlardan kelgan olimlarning erkin ilmiy faoliyati uchun keng imkoniyatlar yaratilganligining yana bir muhim dalilidir.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy “Majolisun-nafois” asarining 12-jildida Ulug‘bekka shunday ta’rif beradi: “Ulug‘bek Mirzo – donishmand podshoh erdi. Kamoloti bag‘oyat ko‘p edi. Yetti qiroat bila Qur’oni majid yodida erdi. Hay’at va riyoziyini xo‘b bilur edi. Andoqkim, zij bitidi va rasad bog‘ladi va holo aning ziji oroda shoe’dur. Bovujudi bu kamolot gohi nazmg‘a mayl qilur. Bu matla’ aningdurkim:

Harchand Mulki husn ba zeri nigini tust,

Sho‘xi makun ki chashmi badon dar kamini tust”. [2;6]

Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ham o‘z nutqlarida shuni ta’kidladilarki: “Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim? – yoshlar. Mayli yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan

Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar 2026-yil 4-son _____ *A seriya*
da‘vat ularning qalbida doim aks – sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga
nimani hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan.” [1].

XULOSA

Xulosa sifatida shuni ta’kidlab o‘tamizki, G‘iyosiddin Koshiyning maktubida gavdalangan Mirzo Ulug‘bek siymosi o‘zbek tarixining ilmiy va madaniy merosiga qo‘shilgan ulkan hissa bo‘lib, u allomaning nafaqat hukmdor, balki qomusiy olim sifatidagi qiyofasini teran ochib beradi. Mazkur maktub Ulug‘bekning Qur‘on ilmlari, tilshunoslik, fiqh hamda aniq fanlar sohasidagi beqiyos bilimlarini isbotlovchi muhim manbadir.

Mirzo Ulug‘bek tomonidan asos solingan ilmiy maktab va rasadxona o‘z davrida yosh olimlar uchun haqiqiy ilhom manbai bo‘lib xizmat qilgan va kelajak avlodlarning ilmiy tafakkuri shakllanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Muhammad Tarag‘ay Ko‘ragonning boy ilmiy va tarixiy merosi bugungi kunda yoshlarni vatanga muhabbat va ilmga sadoqat ruhida tarbiyalashda bebaho manba hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, ajdodlarimizning, xususan, Mirzo Ulug‘bekning ilmiy merosini chuqur o‘rganish yosh avlodda "Biz kimmiz va qanday buyuk zotlarning avlodimiz?" degan g‘urur tuyg‘usini shakllantiradi. Bo‘lajak soha mutaxassislarining asosiy vazifasi esa ushbu allomalar siymosi misolida yoshlarni vatanparvar, yuksak ma’naviyatli va milliy qadriyatlarga sodiq insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh. "Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofliğini asrash – davr talabi" mavzuidagi anjumanda so‘zlagan nutqi.
2. B.Ahmedov, U.Uvatov, G‘.Karimov va boshq. Amir Temur va Ulug‘bek zamondoshlari xotirasida: (Risola). – T.:O‘qituvchi, 1996. – B. 312.
3. F.Hasanov. Ma’naviyat yulduzlari. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2011. – B.368.
4. M.Mamadazimov. Mirzo Ulug‘bek va ilmiy merosi. T.: "Fan va turmush" jurnali, 1989-yil 6-son.

Internet saytlari:

5. <https://lex.uz/docs/-196013>
6. <https://lex.uz/uz/docs/-7102072>
7. <https://www.bukhari.uz/?p=18262&lang=oz> (Anvar Boboyev. Fan tarqaqiyotida Movarounnahrlik ulamolarning o‘rni (6-qism))
8. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/mirzo-ulugbek-merosi.html>